



**BOSHLANG'ICH TA'LIMDA
XALQARO BAHOLASH TAJRIBASI:
MUAMMO, YECHIMLAR VA
ISTIQBOLLAR**

**XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN
MATERIALLARI**

Buxoro, 2022-yil, 29-mart

4. PIRLS 2016 Teacher Questionnaire. International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA). 2015.

BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHILAR BILIMINI BAHOLASHDA PIRLS XALQARO TADQIQOTLARINING TASHKIL ETILISHI

M. R. Hamroyeva

Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi

M.A.Sharipova

BuxDU talabasi

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf ona tili darslarida PIRLS xalqaro baholash tadqiqotlarining tashkil etilishi va uning ahamiyati haqida so'z yuritilgan.

***Kalit so'zlar:** ta'lim, PIRLS, IEA, TIMSS, matn, tadqiqot, darslik, savodxonlik, mashq, kompetensiya, axborot.*

PIRLS matni o'qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqot hisoblanadi.

Tadqiqotlar 2001, 2006, 2011, 2016 hamda 2021-yillarda o'tkazilgan. Har besh yilda o'tkaziladigan PIRLS dasturi 4-sinf o'quvchilarining o'qib tushunish ko'nikmasini xalqaro darajada baholaydi.

Mazkur dastur 4-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy fanlardan bilim darajasini baholaydigan TIMSS dasturini to'ldirishga yo'naltirilgan bo'lib, Bo'ston kollejidagi TIMSS va PIRLS xalqaro markazi, IEA tashkilotining Gamburg va Amsterdam shaharlaridagi idoralari bilan yaqindan hamkorlikda boshqariladi.

O'quvchilarning bilimlarini baholash barcha o'quvchilardan emas, balki ushbu qatlam vakillari sifatida tanlab olingan o'quvchilardan obyektiv testlarni o'tkazish orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, maktab direktorlari, o'qituvchilar, o'quvchilar va hatto ota-onalardan so'rovnomalari o'tkazilib, ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi omillarga oid kerakli ma'lumotlar to'planadi.

PIRLS xalqaro tadqiqoti boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qib tushunish ko'nikmalarini qay darajada rivojlanganligi haqidagi ma'lumotlarni xalqaro miqyosda taqqoslash imkonini beradigan, o'qish va o'qitishni yaxshilashda ta'lim sohasidagi davlat siyosatiga xizmat qilishi mumkin bo'lgan tahlillarni taqdim etadigan yirik xalqaro baholash dasturi hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda PIRLS ta'rifi ko'ra, o'qish savodxonligi jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma til shakllarini tushunish va ulardan foydalanish, shuningdek, matnlardan turli shakllarda ma'no hosil qila olish qobiliyati hamdir.

Tadqiqot doirasida asosiy e'tibor tushunishni namoyon qilishdan o'zlashtirilgan ma'lumotlarni qanday qilib yangi loyihalar va vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyatlarini namoyon qilishga qaratilmoqda.

O'quvchilar bu jarayonning faol ishtirokchisi bo'lib, ma'no yaratadi, matn ustida fikr yuritadi va samarali o'qish strategiyalarini ongli ravishda tanlab qo'llaydi. Har bir matn turi odatiy shakl va qoidalarga amal qilgan holda o'quvchiga matni sharhlashga yordam beradi. Har qanday matn turli shaklga ega bo'lishi mumkin. Bular an'anaviy kitoblar, jumllar, hujjatlar va gazetalar, shuningdek, raqamli ko'rinishdagi yozma shakllarni ham o'z ichiga oladi.

PIRLS boshlang'ich sinf o'quvchilarining sinf va sinfdan tashqari o'qishini baholashda ikkita teng qamrovli maqsadga, ya'ni "badiiy tajriba orttirish", "axborotni olish va undan foydalanish"ga qaratiladi. O'z navbatida, ushbu maqsadlarning har biri to'rtta tushunish jarayonini birlashtiradi. Bular:

diqqatni jamlash va aniq ko'rsatilgan ma'lumotlarni topish;

to'g'ridan-to'g'ri xulosalar chiqarish;

kontent va matn elementlarini baholash va tanqid qilish;

g'oyalar va axborotni talqin qilish va uyg'unlashtirish.

Tadqiqotdagi matnlar murakkabligiga ko'ra, o'rtacha 500 dan 800 tagacha, o'quvchilarning o'qish savodxonligi darajasi past bo'lgan mamlakatlar uchun 400-500 ta, PIRLSda esa, taxminan 1000 ta so'zdan iborat bo'ladi.

Matnning mazmuni 9, 10 yoshdagi o'quvchilarga mos, ayrim madaniyatlarga juda xos bo'lgan mavzulardan chetlashgan, shuningdek, qiziqarli hamda o'quvchiga unchalik tanish bo'lmaydi.

Eng yuqori daraja (625 ball va undan yuqori) O'quvchilar matni yaxlit o'zlashtira oladi va ayni paytda uning alohida qismlarini bir-biri bilan bog'liq holda tushunadi. Muallifning g'oyasini izohlashda o'z fikrini asoslash uchun matnga tayana oladi.

Yuqori daraja (550 ball) O'quvchilar matnni ahamiyatli xabarlarini tushunadi, matnga asoslanib o'z xulosalarini chiqaradi, matn mazmuniga ham shakliga ham baho bera oladi, uning ayrim til xususiyatlariga e'tibor qarata oladi.

O'rta daraja (475 ball) O'quvchilar matndan axborot topa oladi, matn shakli va tilining ba'zi xususiyatlaridan foydalanib, matnga asosan o'z xulosalarini chiqaradi.

Quyi daraja (400 ball) O'quvchilar matnda aniq berilgan va cheklash oson bo'lgan xabarni ajratib oladi.

Tadqiqotda O'zbekistonning boshlang'ich sinf bitiruvchilari boshqa davlatlardagi tengdoshlariga nisbatan qanchalik darajada yaxshi o'qiydi? O'zbekiston o'quvchilarining o'qish savodxonligi qay darajada? O'qish 4-sinf o'quvchilari uchun sevimli mashg'ulotmi? Bugungi kunda bizning mamlakatimizda o'qishni o'rgatish jarayoni qanday tashkil etilgan? Boshlang'ich sinflarimizning o'qituvchilari foydalanayotgan metodlar boshqa mamlakat o'qituvchilari foydalanayotgan metodlardan farq qiladimi? Oila tomonidan o'quvchilar savodxonligini rivojlantirishga qanday hissa qo'shilmogda? kabi asosiy masalalar o'rganiladi.

Shuningdek, tadqiqotda ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish va tahlil qilish maqsadida anketa so'rovnomalari ham o'tkaziladi. Bundan asosiy maqsad o'quvchining maktabdagi va uydagi ta'lim olish sifati, ota-onalarning farzandini bilim olishda qay darajada qo'llab-quvvatlashi tahlil qilinadi.

Tadqiqotning 2016-yil natijalariga ko'ra, 50 ta mamlakat ichida, Rossiya, Singapur, Gonkong va Irlandiya kabi mamlakatlar eng yuqori natijalarni qayd etishdi.

Mazkur davlatlarda o'qish savodxonligi bo'yicha yuqori natijalar quyidagi omillar bilan bog'liq: uydagi kitoblar va raqamli qurilmalarning mavjudligi, ziyoli ota-onalar va ularning kitobga bo'lgan muhabbati, bola maktabga borgunga qadar o'qish-yozishni o'rganganligi hamda maktabgacha ta'lim muassasalariga qamrab olish ko'rsatkichining yuqoriligi.

2021-yilda o'tkazilgan PIRLS xalqaro baholash dasturida 70 ga yaqin davlatlar qatorida mamlakatimizdagi 4-sinf o'quvchilari ham ilk marotaba ishtirok etishdi. Bundan ko'zlangan maqsad ta'lim sifatini oshirish, xalqaro miqiyosda mamlakat nufuzini mustahkamlash bilan birga, o'quvchilar bilimini xalqaro talablar darajasiga olib chiqishdan iborat.

BOSHLANG'ICH TA'LIM TIZIMI SIFATINI OSHIRISHDA PIRLS KABI XALQARO TADQIQOTLARNING ROLI

SH.N.Qurbonova

Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi

N To'yboyeva

BuxDU talabasi

Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinf o'quvchilarini PIRLS xalqaro tadqiqotga tayyorlash masalalari haqida ko'rsatib otilgan. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mehnat tarbiyasini shakllantirishda innovasion ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning muhim jihatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: *pedagogik texnologiya, innovasion texnologiya, ta'lim-tarbiya, didaktik vosita, ta'lim samaradorligi.*

В данной статье рассматривается подготовка учащихся начальных классов к международному опросу PIRLS. Усилены важные аспекты использования инновационных образовательных технологий в формировании трудового воспитания учащихся начальных классов.

Ключевые слова: *педагогическая технология, инновационная технология, учебно-воспитательное, дидактическое средство, эффективность обучения.*

This article discusses the preparation of primary school students for the international PIRLS survey. Strengthened important aspects of the use of innovative educational technologies in the formation of labor education of primary school students.

Keywords: *pedagogical technology, innovative technology, educational, didactic means, learning efficiency.*

O'quvchilarning erishgan yutuqlarini baholash barcha o'quvchilardan emas, balki ushbu qatlam vakillari sifatida tanlab olingan o'quvchilardan ob'ektiv testlarni o'tkazish orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, maktab direktorlari, o'qituvchilar, o'quvchilar, hattoki ota-onalardan so'rovnomalari o'tkazilib, ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi omillarga doir qimmatli ma'lumotlar to'planadi. PIRLS xalqaro

G. I. Idiyeva. PIRLS- XALQARO O'QISH SAVODXONLIGINI BAHOLASH TADQIQOTI XUSUSIYATLARI VA BAHOLASH BO'YICHA KO'RSATMALAR	48
G. H. Saidova, PIRLS XALQARO TADQIQOTINING TA'LIM TIZIMIDAGI AHAMIYATI.....	50
M. R. Hamroyeva, M.A.Sharipova. BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHILAR BILIMINI BAHOLASHDA PIRLS XALQARO TADQIQOTLARINING TASHKIL ETILISHI.....	53
SH.N.Qurbonova, N To'yboeva. BOSHLANG'ICH TA'LIM TIZIMI SIFATINI OSHIRISHDA PIRLS KABI XALQARO TADQIQOTLARNING ROLI.....	54
M.Y.Ro'ziyeva, L.F.Salixova, BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHILARNING IJODIY FIKRLASH BILIMINI BAHOLASHDA PIRLS XALQARO TADQIQOTLARI.....	56
Beisanbayeva Balzhan Sabyrzhanovna, Makhkamova Muattar Uktamovna. EMOTION IS A PHENOMENON THAT IS THE BASIS OF BEHAVIOR	58
Zheldybaeva Aisha Madibekovna, Dzhumayev Mamanazar Irgashevich. OPPORTUNITIES FOR FORMATION OF NATIONAL CONSCIOUSNESS FOR YOUTH	59
Aripbayeva L.Sh., Serikbayeva K.K., Baigunova D.M., Musayeva Nargiza Hashimzhanovna. EMOTIONAL FEATURES OF ADOLESCENTS.....	62
Мусахожиева (Маъруфжонова) Д.Б. ПРИМЕНЕНИЕ СИСТЕМЫ PIRLS ПРИ ОЦЕНИВАНИИ ЗНАНИЙ УЧЕНИКОВ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ	64
Юлдашева М. М., Бафаева Д. РУССКИЙ ЯЗЫК И ЧИТАТЕЛЬСКАЯ ГРАМОТНОСТЬ КАК ОСНОВА ОБУЧЕНИЯ PIRLS.....	66
S.T.Ergasheva. BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHILAR BILIMINI BAHOLASHDA PIRLS XALQARO TADQIQOTLARI	67
M. I. Abdullayeva, S. S. To'rayeva. PISA-XALQARO BAHOLASH DASTURI -O'QUVCHILARDA XXI ASR KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING ASOSI	69
3-SHO'BA: MILLIY O'QUV DASTURINING AMALIYOTGA JORIY ETILISHI.....	72
СЕКЦИЯ 3: ВНЕДРЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНОЙ УЧЕБНОЙ ПРОГРАММЫ	72
M. Djumayev. BOSHLANG'ICH TA'LIMDA MILLIY O'QUV DASTURINI AMALIYOTGA JORIY ETISH: MUAMMO VA YECHIMLAR.....	72
Z. A. Saydivaliyev. BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA DARSLARIDA MILLIY O'QUV DASTURINI JORIY ETISH MASALLARI.....	75
A. S. Abdusamatov, X. Sh. Ibragimova. BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHILARINI PIRLS XALQARO BAHOLASH DASTURIGA TAYYORLASHDA "MILLIY O'QUV DASTURI" DAN FOYDALANISH	77
M.M.Qosimova, N.Ergasheva. O'QUVCHI MANTIQUIY TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISH – MILLIY DASTUR TALABI SIFATIDA	80
Г. Равшанова. ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН ШАРОИТИДА МИЛЛИЙ ТАЪЛИМНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ.....	82
N.B.Adizova. BOSHLANG'ICH SINFLARDA "GAP" MAVZUSINI O'RGANISHDAGI IZCHILLIK	83
N.B.Adizova. "ALIFBE" DARSLIGI ASOSIDA IMLO USTIDA ISHLASH.....	85
Д. Омонов. БИРИНЧИ СИНФДА ИЛМИЙ - ОММАБОП МАТНЛАРНИ ЎРГАТИШ УСУЛЛАРИ	87
M.M.Tilavova, N. I. Tursunova. TEXNOLOGIYA DARSLARINI MILLIY O'QUV DASTURI ASOSIDA TASHKIL QILISH	89
Qoraboyev Husniddin Kamolovich. MILLIY O'QUV DASTURI ASOSIDA 2- SINFLARDA O'QUVCHILARIDA O'QISH SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISHNING METODIK XUSUSIYATLARI.....	91
4-SHO'BA: BOSHLANG'ICH TA'LIMNI INTEGRATSIYALASHNING METODIK IMKONIYATLARI.....	94
СЕКЦИЯ 4: МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ИНТЕГРАЦИИ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ.....	94
Г.Т.Боймуродова. БОШЛАНГИЧ ТАЪЛИМНИ ИНТЕГРАЦИЯЛАШДА РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ	94
G. M. Sayfullayev, N. Haitova, SINFDAN TASHQARI ISHLARDA O'QUVCHILARNING TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISHNING SHAKL VA METODLARI.....	96